

X.R.Ziyodilloev,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
katta oʻqituvchisi

## **TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YOʻNALISHLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizdagi tijorat banklarining kredit portfelini samarali shakllantirish, uni optimallashtirish masalalari va iqtisodiyotga yoʻnaltirilgan kredit qoʻyilmalari hajmi, tijorat banklari aktivlari va ularning tarkibida kreditlarning miqdori tahlili oʻrganilgan va tegishli xulosalar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** kredit, kredit portfeli, tijorat banklari, optimallashtirish, bank aktivlari, bank kapitali

**Аннотация:** В статье изучены вопросы эффективного формирования кредитного портфеля коммерческих банков в нашей стране, его оптимизации, объема кредитных вложений экономико-ориентированного характера, анализа активов коммерческих банков и суммы кредитов в их структуре.

**Ключевые слова:** кредит, кредитный портфель, коммерческие банки, оптимизация, банковские активы, банковский капитал.

**Abstract:** In the article is studied the issues of effectively strengthening the credit portfolio of commercial banks and the volume of economically oriented banks' credit analysis of the assets of commercial banks and the amount of loans in their structure carried out in the country and are given the corresponding conclusions.

**Key words:** loan, loan portfolio, commercial banks, optimization, bank assets, bank capital

### **Kirish**

Bank sanoati dunyodagi yetakchi tarmoqlardan biridir. Tijorat bankining asosiy maqsadi foyda olish boʻlgani uchun kredit berish birinchi oʻrinda turadi. Tijorat banklarining kreditlari xoʻjalik yurituvchi subyektlarning joriy va investision xarajatlarini moliyalashtirish manbalaridan biri boʻlib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, raqobat muhitida bank faoliyati nazoratchilari va menejerlari uchun moliyaviy aktivlarni optimal shakllantirish va ularni togʻri taqsimlash muhim masala hisoblanadi.

Tijorat bankining kredit portfelini shakllantirish, optimallashtirish va sifatli boshqarish kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kredit portfelining holati nafaqat bankning kredit siyosati sifatini, balki kelgusida bank uchun kredit faoliyati natijalarini prognoz qilish imkonini ham beradi. Tijorat banklarining kredit portfelini toʻgʻri shakllantirish, optimallashtirish masalalari

---

<sup>1</sup> Sattarov O., “Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini taʼminlash metodologiyasini takomillashtirish”, Toshkent 2018.

va uning tahlili mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ta'minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit portfelini sifatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar**

So'nggi yillarda bank kredit portfelini optimallashtirish va boshqarish usullari bo'yicha turli metodlar ishlab chiqilmoqda. Banklar kredit portfelini shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilishlari uchun firmalarning ehtiyojlari, bozor raqobati va bankning imkoniyatlarini inobatga olishlari zarur (Klaassen, 1998). Tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishda eng yaxshi amaliyot bank mablag'larini boshqarishning optimal aralashmasini keltirib chiqaradigan tartiblarini aniqlashdir. Tobin izlanishlari natijasiga ko'ra (1965), portfel nazariyasi bank portfelini optimallashtirish va boshqarishda qo'llanilishi mumkin, chunki bank kutilayotgan xavf va likvidlik darajasini hisobga olgan holda aktivlar portfelining daromadlilik stavkalarini maksimal darajada oshirishga intiladi.

Iqtisodchi olimlar Cohen and Hammer (1967) tadqiqotlari natijasiga ko'ra, bank kredit portfelini optimallashtirishda uchta maqsad o'rtasida mos muvozanatni topish asosiy masala hisoblanadi, bular: rentabellik, likvidlik va xavfsizlik. Umuman olganda, to'rtta asosiy omil banklarning aktivlar portfelini optimallashtirish va boshqarish xatti-harakatlariga muhim ta'sir qiladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi: a) mamlakatdagi qonunchilik qoidalari, b) depozitlarning xavfsizlik darajasi, d) iqtisodiyotda kreditga bo'lgan talab, e) bank aksiyadorlarining daromadga intilishlari darajasiga bog'liq.

AQSh, Kanada, Angliya va boshqa rivojlangan davlatlarda kredit portfelini saramali shakllantirish va boshqarishda (Credit portfolio management yoki loan portfolio management) ya'ni CPM katta miqdordagi, asosan likvidlilik darajasi past, turli xildagi kreditlarga ega bo'lgan banklar va boshqa moliya institutlari uchun asosiy funksiya hisoblanadi.

Bugungi kunda optimal kredit portfelini shakllantirish bankning muhim vazifalardan va asosiy muammosi hisoblanadi. Har qanday bankning kredit siyosatining yakuniy maqsadi optimal muvofiqlashgan kredit portfelini shakllantirishdir. Mavjud kredit resurslarining miqdori, ularning qiymati, kredit bo'yicha foiz stavkasi, resurslarni jalb qilish shartlari bo'yicha cheklovlar mavjud bo'lgan holatda optimal kredit portfelini shakllantirish muammosi va uni hal qilish bank mutaxassislari uchun asosiy va doimiy yechilishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilinganda kreditlarning jami aktivlarga bo'lgan holatini ko'rib chiqish amaliy ahamiyatga ega. Buning natijasida banklarning kredit portfelini qanday shakllangankigi, ularning risklilik, daromadlilik va likvidlilik darajalarini qay darajaliligiga baho beriladi. Quyidagi jadvalda tijorat banklari aktivlari, ularning tarkibida kreditlarning miqdori va ulushi ko'rsatkichlarini xalqaro amaliyotdan kelib chiqib tahlil qilamiz. 1-jadval ma'lumotlariga asosan, tijorat

banklari aktivlari 2022-yilda 556,7 trln. soʻmni tashkil qilib, 2014-yilga nisbatan 500,5 trln. soʻmga koʻpaygan, bu tahlil qilinayotgan davr oraligʻida deyarli oʻn baravar oʻsganligini koʻrsa boʻladi. Bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 2022-yilda 70,1 foizni tashkil qilib, oʻtgan yillarga nisbatan ozgina kamayishga ega boʻlgan.

**1-jadval**

**Tijorat banklari aktivlari va ularning tarkibida kreditlarning  
miqdori va ulushi<sup>2</sup>**

Koʻrsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tijorat banklari jami aktivlari (trln. soʻm)	56,2	65,2	84,1	166,6	214,4	272,7	366,1	444,9	556,7
Kredit qoʻyilmalari (trln. soʻm)	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1
Kredit qoʻyilmalarining bank aktivlari tarkibidagi ulushi (foiz hisobida)	61,4	65,5	63,5	66,4	78,1	77,6	76,5	73,4	70,1

Iqtisodiyotga yoʻnaltirilgan kredit qoʻyilmalari hajmi oʻtgan yilga nisbatan 2022-yilda 19,6 foizga oshib, joriy 2023-yil 1-yanvar holatiga 390,1 trln. soʻmga yetganligi, hamda kreditlarning YaIM nisbatan darajasi 43,9 foizni tashkil etganligini koʻrishimiz. Oʻz navbatida, tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini yanada oshirish ular kredit portfelining sifatiga bogʻliq. Bu oʻz navbatida esa, banklar kredit portfelini optimallashtirishga va boshqarish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

**2-jadval**

**Oʻzbekiston Respublikasida nominal yalpi ichki mahsulot (YaIM),  
tijorat banklari kreditlarining miqdori va darajasi<sup>3</sup>**

Koʻrsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM mlrd. soʻm (trln.soʻm)	144,9	176,5	199,3	302,5	407,5	524,0	580,2	734,6	888,3
Kredit qoʻyilmalari (trln.soʻm)	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1
Kredit qoʻyilmalarining YaIMga nisbati (foiz hisobida)	24,02	24,19	26,79	36,6	41,1	40,4	47,8	44,5	43,9

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinadiki, 2014-2022-yillarda Oʻzbekiston respublikasining yalpi ichki mahsuloti va tijorat banklari

<sup>2</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz), Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>3</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz), Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

kreditlarning hajmi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Banklarning iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta’minlashda, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining joriy va investision xarajatlarini moliyalashtirish ahamiyati kengayib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlari, depozitlari va kapitalining 2014-2022-yillardagi dinamikasini tahlil qilamiz. Jadval ma’lumotlari asosida shuni ko‘rish mumkinki, tijorat banklari kreditlari 2022-yilda 390,1 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2014-yilga nisbatan 355,6 trln. so‘mga, ya’ni 11 baravardan ko‘proq oshgan. 2017-yildan boshlab tijorat banklari kapitali va depozitlari banklar tomonidan berilgan kreditlar summasidan kam bo‘lgan. Bunda tijorat banklari kredit resursi sifatida bank kapitali va depozitlardan tashqari boshqa manbalardan keng foydalanganligidan dalolat beradi.

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlari, depozitlari, umumiy kapitali dinamikasi<sup>4</sup>, trln. so‘m

№	Ko‘rsatkichkar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Tijorat banklari kreditlari	34,5	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1
2.	Tijorat banklari resurslari, jami	35,4	43,4	54,0	80,3	96,7	141,1	173,1	227,1	296,3
2.1.	Tijorat banklari depozitlari	28,5	35,6	44,6	59,6	70	90,0	114,7	156,2	216,7
2.2.	Tijorat banklari umumiy kapitali	6,9	7,8	9,4	20,7	26,7	51,1	58,4	70,9	79,6
3.	Tijorat banklari kapitali va depozitlarning kreditlarga joylashtirilishi	+0,9	+0,7	+0,6	-30,3	-70,7	-170,5	-103,8	-99,3	-93,8
4.	Tijorat banklari kapitali va depozitlarni kreditlarga yo‘naltirish darajasi, % da	97,5	98,4	98,9	137,7	173,1	149,9	159,9	143,7	131,7

Quyidagi keltirilgan 3-jadval ma’lumotlari orqali shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklari o‘z majburiyatlaridan ya’ni, jalb qilingan mablag‘lar va o‘z mablag‘laridan kredit tarzida to‘laonli foydalanib kelmoqda. Bu ko‘rsatkich oxirgi ikki yilda mos ravishda 2021-yilda 143,7 foizni, 2022-yilda 131,7 foizdan ortiqni tashkil etgan.


Kredit portfelini optimallashtirish kredit portfelining sifati, kredit faoliyati samaradorligi va riskni baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan usullari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, har bir bank kredit portfelini optimallashtirishning o‘ziga xos usullariga ega va bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Tijorat bankining optimal kredit portfelida jalb qilingan resurslar va ularni kreditga joylashtirish jarayonida kreditlar quyidagilarga javob berishi kerak: 1) bank ixtiyorida mavjud kredit resurslari muddati va summasiga javob berishi; 2) daromadlilik darajasi maksimal darajada bo‘lishi; 3) risk darajasi minimal maqbul darajaga tushirilishi shart. Kredit portfelini optimallashtirish va sifatli boshqarish kreditlash jarayonida bank faoliyatining tashkil

<sup>4</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

etilishi boʻlib, u kredit riskining oldini olish yoki kamaytirishga qaratilgan. Quydagi rasmda tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish jarayonini koʻrishimiz mumkin boʻladi.

## 1-chizma

### Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish jarayoni<sup>5</sup>



Kredit portfelini shakllantirish va uni optimallashtirish bankning kredit faoliyati umumiy maqsadi shakllantirilganda, kredit siyosati strategiyasi ishlab chiqilgandan soʻng boshlanadi. Bugungi kunda banklar oʻzlarining kreditlarini faqatgina oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshqarishlari ancha murakkab boʻlgan masala hisoblanadi. Ularga oʻzlarining kredit portfelini optimallashtirish va sifatli boshqarilishi uchun boshqa moliya institutlari bilan aloqa oʻrnatishlari ancha yordam beradi. Quydagi keltirilgan 4-jadvalda tijorat banklarining kredit portfelini optimallashtirishda eʼtibor qaratilishi kerak boʻlgan muhim holatlarni keltiramiz.

## 4-jadval

### Kredit portfelini optimallashtirishda muhim holatlar<sup>6</sup>

Holatlar	Bank kredit portfeli optimallashtirishdagi qadamlar
1- holat	Kredit portfelini tashkil qiluvchi kreditlarni baholash mezonlarini aniqlash;
2- holat	Tijorat banki kredit portfelining strukturasi aniqlash;
3- holat	Kredit portfeli tarkibidagi oʻzgarishlar sabablarini baholash;
4- holat	Kredit portfelining sifatini aniqlash
5- holat	Bank kredit portfelida koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash zaxirasini aniqlash

### Xulosa va takliflar

Yuqoridagi maʼlumotlar asosida tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirishda asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni koʻrsatishimiz mumkin:

- 1) kredit riski darajasiga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- 2) kredit portfelini kredit risklari, mijozlar tarkibi va kreditlar tarkibi boʻyicha optimallashtirish;

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

3) kreditlarni diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadligini taʼminlash;

4) yaratilayotgan zaxiraning yetarliligini baholash va uni oʻz vaqtida zarur darajada tashkil etib borish;

5) qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli oʻzgarishi ehtimolini aniqlash;

6) bankning kredit siyosatini portfelni optimallashtirish vazifalariga moslab ishlab chiqish va bank boʻlinmasi darajasigacha har bir mutaxassis bajarishi kerak boʻlgan vazifalarni belgilash.

Xulosa qilib aytganda, kredit portfelini tahlil qilish bank tomonidan kredit portfeli tarkibi va uning sifat tarkibi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi. Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yoʻnaltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xoʻjalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdorining koʻpayishi banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona shakllantirish va optimal kredit portfel asosida joylashtirishni taqozo etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Abdullaeva Sh.Z. “Bank risklari sharoitida tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash”, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2000-y.

2. Otamurodov H.H. “Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish”, Toshkent, 2019-y.

3. Герасина Ю.А., Расулов Р.М. Управление кредитном портфелем коммерческого банка // Бизнес в законе – 2011-y.

4. Omonov A.A. “Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari”. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Toshkent, 2008.

5. Sattarov O.B. Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini taʼminlash metodologiyasini takomillashtirish i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018-y.

6. Qodirov A.K. “Tijorat banklarida kredit berish mexanizmini takomillashtirish yoʻllari” Toshkent, 2009-yil.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014-2022-yillardagi faoliyati toʻgʻrisida hisobot.

8. “Kredit riskini boshqarish tamoyillari” bank nazorati boʻyicha Bazil qoʻmitasi, Bazil, sentyabr 2000-y.

9. Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari,

10. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti